



42



5. Fearch C., Kasper, G. (1983). Plans and strategies in foreign language communication. In C. Faerch and G. Kasper (eds.) Strategies in Interlanguage Communication. Harlow, UK: Longman.

### **ADABIYOT DARSLARIDA HIKOYALARINI TAHLIL QILISH**

#### **Usmonova Umida Xaydarali qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

[v53861490@gmail.com](mailto:v53861490@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ishda badiiy asar tahlili bosqichlari hamda adabiyot darslarida hikoyalarni tahlil qilish matnni o‘qish jarayonida satrma-satr savollar berish orqali tushunib borishning afzalliklari haqida so‘z yuritilgan. Tajriba sifatida Legston Hyuzning “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi asosida o‘tkazilgan dars mashg‘ulotlarining mazmuni bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy tahlil bosqichlari, hikoya tahlili, matn bilan ishlash, “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi asosida tuzilgan savol va topshiriqlar

Adabiyot darslarida o‘quvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishini o‘stirish va tahlil qobiliyatini rivojlantirish uchun qisqa hikoyalarni o‘qitish samarali. Qisqa hikoyalar dars jarayonida to‘liq matn bilan tanishish va bir paytning o‘zida matn tahlilini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Badiiy matn tahlili qarama-qarshi fikr, detallarni topish, syujetni yoki mazmunni o‘zgartirish orqali noto‘g‘ri talqinni tasavvur qilish, muhim qismni ajratish, matnni soddalashtirib tasvirlash, noaniqliklarni tushuntirish, ichki va tashqi qiyoslar o‘tkazish [1] yoki savollar asosida o‘qish, asosiy fikr, hodisalar va nomlarga ahamiyat qaratish, shaxsiy munosabatni o‘ylab ko‘rish, aniq dalillar va parchalarni topish uchun matnni qayta o‘qish, so‘ng muhokama qilish [2] kabi bosqichlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, hikoyalarni auditoriyada tahlil qilishda ham jarayonni muhit, obraz, syujet tuzilishi, hikoyachining nuqtayi nazari, muammo, konflikt, mavzu, uslub bosqichlarga bo‘lib ko‘rib chiqish muhim. Biroq darsda buning bariga ulgurish qiyin. O‘quv tahlili joy (auditoriya yoki sinf) va vaqt (bir dars yoki uning qismi) jihatidan ham cheklangan bo‘ladi. Tahlil asnosida o‘quvchilarning yosh va intellektual darajasi hisobga olinishida namoyon bo‘ladigan intellektual-ma’naviy chegara ham mavjud Shu jihatdan o‘quv tahlilini amalga oshirish filologik tahlilga nisbatan murakkabroqdir. [3] Ish hajmini qisqartirib, quyidagi ko‘rinishdagi savollardan foydalanish mumkin: Voqeа boshlangan joy qanday yaratilgan? Kunning qaysi qismi? Ob-havo qanday? Atrof-muhit tasviri qanday? Hikoyadagi makon tasvirlari shunchaki fon vazifasini bajaryaptimi yoki mavzuni ifodalash uchun xizmat qilganmi? Eng muhim voqeа qaysi? Voqeанин sodir bo‘lishiga sabab nimada? Hikoyada keskin vaziyat qachon sodir bo‘ldi? Hikoyaning burilish nuqtasi bormi? Tasvir uchun foydalanilgan detallarni umumlashtirib hikoya mavzusini ayting. [4] Ammo bu savollar asar mazmuniga kirib borishga yetarli emas.

Auditoriyada hikoyalar tahlili hikoya matni bilan satrma-satr ishlab, o‘qish jarayonida tug‘ilgan savollarga javob berib borish tarzida amalga oshirilsa, asarning mazmun va estetik jihatlari to‘liq tahlil qilinadi, vaqtadan mutanosibligiga erishiladi. Savollarni tuzishda yuqorida keltirilgan tahlil bosqichlarini ko‘zda tutish foydali. Quyida biz Lengston Hyuzning “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi asosida tuzilgan savol va topshiriqlarga namuna keltirdik. Savollarga javol olingandan so‘ng matnning davomini o‘qish, javoblardan kelib chiqib yozuvchi uslubi yutuqlariga ahamiyat qaratib borish lozim. Unutmaslik kerakki, o‘qituvchida o‘rganilayotgan asarga oid kontekst ma’lumotlari avvaldan tayyorlab qo‘yilishi kerak.

1. Sumkadan hamma narsa topilishi ayol haqida qanday tasavvur uyg‘otadi? Sumkasida ko‘p narsa solib yuradigan insonlar qanday bo‘ladi?


2. Ayol haqidagi ma’lumotlarni ayting – *U o‘n birda ishdan qaytyapti, katta sumka ko‘targan (aniqlashtirish uchun ba’zi javoblar berildi)*. Aytilganlardan xulosa chiqaring. Boylar qanday sumka tutadi? Ayol boymi, sizningcha? To‘ladan kelgan ayol va semizgina sumka ayol xarakterini ochishda ramziylik bo‘lishi mumkinmi? Qanday?

503

3. Sumkani ko‘tara olmay vicioilib tushgan bolla tasviridan kelib chiaib uning o‘sorilik sababini

Authorize the system to edit this file.

[Authorize](#)



Edit

Annotate

Fill & Sign

Convert

All





42



3. Sumkani ko'tara olmay yiqilib tushgan bola tasviridan kelib chiqib uning o'g'rilik sababini taxmin qiling.

4. – *Uyingda birortasi yuzingni yuvib yur, deb aytmaydimi?* [5] Ayol savolni nima maqsadda berdi. *Uning ota onasi bor yo'qligini aniqlash uchun.*

5. Bola haqidagi ma'lumotlarni to'plang va xulosa chiqaring.

*O'g'rilik qilmoqchi bo'ldi. Sumkani ko'tarolmay yiqildi, demak, u juda zaif, shuningdek, u o'g'rilik qilmagan. O'g'rilar har xil vaziyat uchun tayyor turadi. U o'g'ri bo'lsa, zaif bo'lsa ham, yiqilmasligi kerak edi. Arzon kiyimda ust boshi kir. Uyida hech kim yo'q. Balki, uyi ham yo'q. Demak, u ovqat uchun o'g'rilik qilgan.*

6. Tozalikka amal qilish tarbiya belgisi. Fikrni hikoyaga bog'lab tushuntiring.

7. Ayolning uyi tasviri orqali ayol va qo'shnilarining ijtimoiy ahvolini aytинг.

8. Nega ayol eshikni ochiq qoldirdi?

9. Rojerning yuz yuvishga beixtiyor ketishi nimani anglatadi?

10. Ayol bolaga uyidagi kechki ovqatga ham kech qolganligini eslatishdan maqsadi nima edi? Uning yolg'iz yashashini bilib bo'lgan edi-ku? Ayol bola haqidagi ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri so'ramaganidan kelib chiqib ayol tabiatini tushuntiring.

11. Zamsha tuflini odatda kimlar kiyadi? Bolaning aynan zamsha tuqli olishni orzu qilgani sabablari nimada?

12. Ayol bir o'g'iz so'rasha, berishini aytganida bolaning ajablanishidan uning o'tmishi haqida nimani anglash mumkin? Ayol bu gapni nima maqsadda aytadi? Sizningcha, begona bolaga rostdan ham pul berib yuborar edimi?

13. Bola ayolning ortiga qarashni istamaganini sezishi ayol va bolaning umumiyligi jihatlari borligini anglatadimi?

14. Harlem, qoratanlilarining ahvoli, ish, qullik masalalari to'g'risida kontekstni o'rganing. Asarda xonimning arzon uyda yashayotgani, ayolning bolaligi, bolaning holati sabablarini anglashga harakat qiling.

15. Bolaning ayol ishonchini yo'qotishni istamaganidan kelib chiqib bola xarakterini tavsiflashga harakat qiling. Nima uchun bola ayolga yordam taklif etdi?

16. Bola nega aynan sut olib kelishni taklif qildi? Ramziylikni tushuntiring.

17. Ayol nima uchun ishini sevishi haqida gapirdi? Ishi haqidagi ma'lumotlarni yorqin bo'yoqlarda tasvirlashga urindi? Oyoq kiyim o'g'rilanishi va ish tasvirlarining ramziyligini bola va jamiyat hayoti misolida tushuntiring

18. Nima uchun xonim bugungi kun bolaga saboq bo'lishi kerakligini ta'kidladi, unga hech qanday nasihat qilmagan edi-ku?

Matn bilan tanishilgach, matnni qayta ko'rib chiqish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1. Ayolning Rojer tengi o'g'li borligi nima uchun sezilmaydi? Kechki o'n birda Rojer tengi bola qayerda bo'lishi mumkin? Javoblardan ayolga xarakteristika berishga harakat qiling.

2. Ayolning afsuslanishiga sabab bo'lgan gunohlarni taxmin qiling va uning bugungi holatini solishtiring. Ayolning Rojerga nasihat qilmay, o'z holatini ko'rsatishga urinishi o'tmish sabog'imi?

3. Xudodan ham yashirishga urinishni aytishdan maqsad nima edi?

4. Hechdan ko'ra kech yaxshi maqolini ayol va bolaga targ'ib qiling.

5. Ayb qilgan insonga ikkinchi imkoniyat bera olish uchun inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak? Ikkinchi imkonni berish to'g'ri yo'lmi?


6. Kontekstni qayta ko'rib chiqing. Hikoya faqat o'g'rilik va ta'lim haqidami?

Ushbu savollar asosida to'rtta guruhda bir soatdan dars o'tkazildi. Dars davomida o'quvchilar matn asosida qo'shimcha savollar tuzdi. Matnni tushunib borish matnning keyingi qismlarini tahlil qilishni osonlashtirdi. Bu qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishishga imkoniyat tug'dirdi. Natijada o'g'rilik va to'g'ri ta'limning ahamiyati bilan birgalikda irqiy ayirmachilikning uning qurbanlari ruhiyati va ijtimoiy ahvoliga ta'sirini o'tmish, bugungi kun, kelajak nuqtayi nazaridan tahlil qilishga erishildi. Shuningdek, xalq, millat, irq yoki alohida shaxslarning

504

Authorize the system to edit this file.

Authorize



Edit

Annotate

Fill &amp; Sign

Convert

All





42



harakatlari va hayotini baholash, hukm qilish emas, yaxshilanishi uchun yordamlashish olivjanoblik hisoblanishi, bu sifatga egalik haqiqiy inson belgisi ekanligi muhokama qilindi. Javoblar hayratga sabab bo'lganda yozuvchi mantiqi, so'z, jumla, detallarni tanlashdagi ziyrakligi o'quvchiga estetik zavq bergani e'tirof etildi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida hikoyalarni satrma-satr o'qib, har bir so'z va mayda detallarning nima uchun qo'llanganligini savollar orqali aniqlab borish, bolaning dalillarga ega bo'lishi, shu asosda mantiqli fikrlab asar mohiyatini to'laqonli tushunishiga sabab bo'ladi. Matnni bu tarzda butunlay eritib yuborish hikoya so'z san'ati namunasi ekanligini, yozuvchi mahoratini anglashda katta foyda keltiradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jenkins, M., Bokosmaty, R., Brown, M., Browne, C., Gao, Q., Hanson, J., & Kupatadze, K. (2017). Enhancing the design and analysis of flipped learning strategies. *Teaching & Learning Inquiry*, 5(1). <http://dx.doi.org/10.20343/teachlearninqui/>; Strategies for Analysis of Text. Flipped Learning Module <https://www.bu.edu/teaching-writing/resources/strategies-for-analysis-of-text/>
2. Awatef Ali Sheir, Magda Atta Ahmed Soltan, Abdel Rehim Saad el Din. The Effect of a Literary Analysis Learning Model in Developing The Basic literary reading. Skills of English Language Majors at Faculties of Education. /Educational sciences journal. [http://search.shamaa.org/PDF/Articles/EGJes/JesVol23No2P1Y2015/jes\\_2015-v23-n2-p1\\_025-040\\_eng.pdf](http://search.shamaa.org/PDF/Articles/EGJes/JesVol23No2P1Y2015/jes_2015-v23-n2-p1_025-040_eng.pdf)
3. Corbin Bond, Ramon Jones, Bryan Hiatt. Composition and Literature. What is a short story. Copyright 2021 by hiattb. <https://pressbooks.pub/engl102/chapter/5-1-how-to-analyze-a-short-story/>
4. Qozoqboy Yo'ldoshev. Mohiyatni anglatish yo'li / <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/qozoqboy-yoldoshev-mohiyatni-anglatish-yoli-qozoqboy-yoldoshev-mening-kutubxonam-korsatuvida.html>
5. Mirzayeva Z. I., Djalilov K. Q. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.

## TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL DOSKALAR: TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR

Uzoqboev Xojiakbar Qobiljon o'g'li  
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** maqolada fan ta'limiga e'tibor qaratgan holda o'quv jarayonida interaktiv doskalardan foydalanish ko'rib chiqiladi. Mualliflar o'quv yurtlarida interfaol doskalardan foydalanish tajribasini o'rganadilar va ularning o'quv samaradorligi va o'quv materiallarini o'zlashtirishga ta'sirini tahlil qiladilar. Maqolada ushbu texnologiyadan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan, interfaol doskalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish usullari taklif qilingan va ularni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari zamонавиј та'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tabiiy fanlar bo'yicha o'quv jarayonini optimallashtirishga intilayotgan o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** interfaol doskalar, ilmiy ta'lim, ta'limdagi texnologiyalar, fanni o'qitish, raqamli ta'lim resurslari, ta'limdagi vizualizatsiya, ta'limdagi innovatsiyalar, o'qitish samaradorligi, interaktiv o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.


**Kirish.** So'nggi o'n yilliklarda raqamli texnologiyalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. O'qitishda, ayniqsa fan sohasida interfaol doskalardan foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu maqolada biz ilmiy ta'limda interfaol doskalardan foydalanish tajribasini, ularning afzalliklari va rivojlanish istiqbollarini ko'rib chiqamiz. Interfaol doskalar proyektor va kompyuter funksiyalarini birlashtirgan zamонавиј uskunalaridir. Ular o'qituvchiga nafaqat rasmlarni doskaga

505

506

Authorize the system to edit this file.

Authorize



Edit

Annotate

Fill &amp; Sign

Convert

All





MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ  
JIZZAX FILİALI

YANGI O'ZBEKİSTON: FAN,  
TA'LIM VA INNOVATSIYA  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN  
MATERIALLARI TO'PLAMI

# 1-QISM



9-10-APREL

2024-YIL



WWW.JBNUU.UZ

INFO@JBNUU.UZ

JBNUU.UZ

@UZMUJIZZAXFILIALI

1-SHO'BA. ANIQ VA TABIÝ FANLARDA ILMIY TADQIQOTLAR.

РОЛЬ ПРИКЛАДНОЙ ПРОГРАММЫ MAPLE В РЕШЕНИИ СЛОЖНЫХ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ.

**Абылаева А.** -Доцент кафедры фундаментальной и прикладной математики ЕНУ им.Л.Н.Гумилева, Казахстан, [abylayeva\\_am@enu.kz](mailto:abylayeva_am@enu.kz)

**Халимов У.** -и.о доцент Кафедры прикладной математики Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека [uktam-8719@mail.ru](mailto:uktam-8719@mail.ru)

**Якубжанова М.**-Магистранта Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

**Аннотация.** В данной статье представлена краткая информация о возможностях прикладной программы Maple при решении задач математического моделирования.

**Ключевые слова.** математика, модель, пример, приложение.

Сегодня мы знаем, что математическая наука признается одним из инструментов, представляющих изучение и анализ процессов, происходящих в природе и обществе. Использование возможностей этих инструментов с эффективными и быстрыми снимками трудно представить без современных достижений компьютерных технологий. Например, во многих случаях для решения возникшей математической задачи быстро и с заданной точностью требовалось знание определенного алгоритмического языка. Но проблема в том, что в математиках нет недостатка в людях, которые не очень хорошо осведомлены о возможностях сред программирования. Для преодоления этой проблемы стали создаваться вычислительные системы, обладающие значительными удобствами. До недавнего времени пользователь для решения своей задачи математического моделирования должен был не только знать математику, но и уметь работать на компьютере, знать хотя бы одну прикладную программу и владеть сложными вычислительными методами. В настоящее время трудно представить научно-методические исследования по математическим задачам





42



намкорни

173.	<b>Solijonova Sh.N.</b> Pedagogning shaxsiy rivojlanishida kreativlik.
174.	у
175.	<b>Tadzhibayev M.T.</b> Ilmiy-ommabop matnlarda stilistik figuralar tarjimasining o'ziga xos jihatlari
176.	<b>Tillaev B.A.</b> Globallashayotgan dunyoda ommaviy axborot vositalari va millat imidjining shakllanishi
177.	<b>Tirkasheva S. O'</b> . Xurshid Do'stmuhammad hikoyalari tahlili
178.	<b>Tleubayeva G.S.</b> Iqtidorli yoshlarning bilimini test topshiriqlari orqali aniqlash va mavjud pedagogik-psixologik muammolarni o'rganish
179.	<b>To'raqulov U.X.Shokirov A.A.</b> Ko'p bolali oilalarda shaxslararo munosabatlarning bola psixik taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish zarurati
180.	<b>Tugalov B.B.</b> Dafn an'analarining ustrushona aholisi ma'naviy diniy hayotidagi o'rni xususida
181.	<b>Tugalov I.X.Hotamova J.B.</b> Konflikt – badiiy asar shakli komponenti sifatida
182.	<b>Turdaliyeva D.</b> 5-6 sinf o'quvchilari uchun darslarda o'zbek amaliy san'at bezaklarini o'qitish metodikasining xususiyatlari
183.	<b>Turdiyev I.U.</b> So'ngi o'rta asrlarda Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibida yuz urug'ining o'rni
184.	<b>Ubaydullayeva M.O.</b> Gender tilshunoslikning taqdiqot ob'ekti sifatida
185.	<b>Umarova N.X.</b> Kommunikativ strategiyalar - maktabni rivojlantirishda boshqaruven vositasi sifatida
186.	<b>Usmonova U.</b> Adabiyot darslarida hikoyalarni tahlil qilish
187.	<b>Uzoqboev X.Q.</b> Tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol doskalar: tajriba va istiqbollar
188.	<b>Xakimov O.M.</b> Shaxsning ma'naviy borlig`ining takomillashuvida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni
189.	<b>Xamrayev G'.G'.</b> Buxoro amirligi qushbegi hujjatlarining umumiyl tavsifi
190.	<b>Ходиев Ш.И.</b> Моделирование и компьютерное моделирование в социальных науках
191.	<b>Xojaev Z.X.</b> Ichki ishlar organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi tafakkurni shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy tushunchalarning ahamiyati
192.	<b>Xoliqova R.M.</b> 5-6 sinf ona tili ta'lilda o'quv topspiriqlarini tavsifi va tasnifiga doir metodik yondashuvlar
193.	<b>Xosilmurodov I.X.</b> Abu Nasr Farobiyninig mantiq ilmiga oid qarashlari
194.	<b>Yakubov U.</b> Menejerlarning xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish shakllari
195.	<b>Yuldashev I.I.</b> O'zbek etnomadaniy sinkretikligida etnogumanizmning namoyon bo'lishi
196.	<b>Yusubjanova M.T.</b> Moda va medianaga doir masalalar yechishda interfaol metodlardan foydalanish
197.	<b>Ханжарова Б.С. Кекилбек С.Ж.</b> Игровые подходы к обучению математике: сравнительный анализ традиционных и инновационных методов
198.	<b>Zokirova G.Kh.</b> The role of learners' self-assessment in developing phraseological competence
199.	<b>Ziyayeva M.</b> Exploring pedagogical neology: its essence and implications
200.	<b>Goyibnazarova S.Sh.</b> Oila munosabatlarda gender rollari muammoesi
201.	<b>G'oziev K.</b> Oliy ta'lim tashkilotlaridagi kvota tizimidagi mavjud muammolar
202.	<b>G'ofurova A.X</b> Kasb ta'lim dizayn yo'nalishida ixtisoslik fanlarini 3d texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning axborot dedaktik ta'minoti
203.	<b>Cho'liyeva N.A.</b> Nazar Eshonqul ijodida badiiy makon va xarakter uyg'unligi
	<b>4-SHO'BA. YOSH OLIMLARNING ILMIY IZLANISHLARI.</b>



Edit

Annotate

Fill &amp; Sign

Convert

All

